



SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar- noyabr)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar- noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9210,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1222,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 81,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 7984,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 951,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1% ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)





2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Termiz shahrida (38,6%), Termiz (6,7%) , Denov (5,1 %), Sariosyo (4,4 %), Muzrabot (3,8 %), Jarqo'rg'on(3,8 %) va Boysun tumanlarida (3,3%) qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,6 % ga o'sdi va 1222,1mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,3% ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 7988,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 4,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,7% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi, (%)

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,5 %), Uzun (99,1 %), Denov (97,0%) va Oltinsoy (96,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,3% ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (40,3 %), Termiz (15,2%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,2 %) kuzatilgan.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (25,9 %), Denov tumani (20,2%), Sho'rchi (8,4%), Sherobod (5,4%) va Jarqo'rg'on (5,34%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1222,1	181,6	7988,4	104,5
Termiz Sh.	961,3	304,2	1421,6	101,3
Oltinsoy	11,4	58,6	361,8	105,5
Angor	13,9	64,3	382,8	104,1
Boysun	18,5	87,6	355,0	104,3
Muzrabot	1,8	20,2	345,2	106,1
Denov	56,6	78,5	1807,2	106,2
Jarqo'rg'on	25,2	73,0	460,3	106,3
Qumqo'rg'on	15,2	62,3	362,7	105,2
Qiziriq	12,5	65,7	374,3	104,4
Sariosiyo	19,6	104,9	360,8	104,4
Termiz	35,3	110,4	197,4	106,0
Uzun	2,8	19,5	328,6	104,0
Sherobod	21,7	69,4	479,2	104,5
Sho'rchi	26,3	67,1	751,5	104,6

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)

2019 yil yanvar- noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3554,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Termez shahri (16377,1 ming so'm), Denov (4919,0 ming so'm), va Sho'rchi tumanida (3788,4 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qumqo'rg'on tumanida (1574,1 ming so'm), Sariosiyo (1871,2 ming so'm) va Uzun tumanida (1929,2 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	3554,7	108,3
Termiz Sh.	16377,1	137,4
Oltinsoy	2148,6	100,6
Angor	3037,5	99,8
Boysun	3157,2	101,3
Muzrabot	2487,3	101,6
Denov	4919,0	102,7
Jarqo'rg'on	2259,0	101,5
Qumqo'rg'on	1574,1	99,9
Qiziriq	2262,2	99,8
Sariosiyo	1871,2	102,3
Termiz	2158,6	103,9
Uzun	1929,2	98,1
Sherobod	2630,9	100,1
Sho'rchi	3788,4	100,3

Jumladan, 2019 yilning yanvar- noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0% ni tashkil etib, 185,5 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,1% kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- noyabr)

Yanvar- noyabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2217,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga ko'paydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-noyabr oyilari yakunlariga ko'ra, 1431,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 % ga o'sdi. Ushbu sektoring umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,5% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (92,1%), Angor (91,4%), Boysun (88,1%) , Uzun (84,4%) va Sariosiyo (84,2%) tumanlarida yuqori bo'lган.


**Yirik va kichik biznesning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 35,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (66,4%), Muzrabot (55,9%) va Jarqo'rg'on (55,7%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	2217,8	104,8	786,3	102,2	1431,5	106,2
Termiz sh.	485,8	109,2	262,0	111,9	223,8	106,2
Oltinsoy	81,2	99,2	44,7	94,2	36,5	106,0
Angor	172,3	109,7	14,8	120,6	157,5	108,7
Boysun	9,3	103,6	1,1	84,4	8,2	106,9
Muzrabot	127,4	109,5	71,3	113,7	56,1	104,5
Denov	324,9	101,1	96,1	90,3	228,8	106,4
Jarqo'rg'on	212,7	119,7	118,5	134,1	94,2	105,4
Qumqo'rg'on	86,6	99,4	57,5	96,5	29,1	105,6
Qiziriq	182,8	101,8	37,0	85,9	145,8	106,8
Sariosiyo	70,0	104,7	11,0	96,7	59,0	106,3
Termiz t.	170,9	88,8	13,5	30,7	157,4	106,1
Uzun	47,8	91,7	7,4	54,1	40,4	105,2
Sherobod	185,2	112,3	34,9	161,7	150,3	104,9
Sho'rchi	60,9	93,6	16,5	72,2	44,4	105,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiy o'sish sur'ati Termiz tumanida (88,8 %) va eng yuqori o'sish esa Jarqo'rg'on tumanida (119,7 %) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'lumi
(0371) 230-85-82